

MUMTOZ SHE'RIYATDA NAFS TALQINI

Zoyir Yusupovich YALLAQAEV

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
Termiz, O'zbekiston

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА *ВОЖДЕЛЕНИЕ* В КЛАССИЧЕСКОЙ ПОЭЗИИ

Зоир Юсупович ЯЛЛАКАЕВ

Преподаватель
Термезский государственный университет
Термез, Узбекистан

THE INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF *LUST* IN CLASSICAL POETRY

Zoyir Yusupovich YALLAQAEV

Lecturer
Termez State University
Termez, Uzbekistan zoyiryallaqayev@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 801.7

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Yallaqayev Z. Y. Mumtoz she'riyatda nafs talqini
// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 4
(45). — B. 147-157.

<https://doi.org/10.36078/1666763406>

Received: March 20, 2022

Accepted: August 17, 2022

Published: August 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s).

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada tasavvuf adabiyotida o'ziga xos obraz bo'lgan nafs va uning yaratilishi, unga asos bo'lgan unsurlarning badiiy ifodasi Qur'on oyatlari, hadislar hamda Ahmad Yassaviy ijodiga tayangan holda tahlil qilingan. Bu obrazning o'ziga xos klassik qahramonga aylanishi, ma'no ko'lamining tobora murakkablashib, global-kiber g'oyaga aylanib borishida, umumbashariy mohiyat kasb etishida nafsning o'rni va ahamiyati badiiy dalillar vositasida ochib berilgan. Nafs tushunchasining evolyutsiyasi, etimologiyasi, tamadduni hamda taraqqiyoti kechmishi chuqur kuzatilgan. Nafs obrazining diniy va tasavvufiy mazmundagi o'ziga xos jihatlari qayd etib o'tilgan. Nafs konseptining tasavvufiy g'oyadan badiiy obrazga aylanish tarixi kuzatilib, nafsning badiiy g'oyasi, bu obrazning mumtoz adabiyotida tutgan o'rni tahlil qilingan, uning tasavvuf adabiyotidagi takomil dinamikasi kuzatilgan. Nafs badiiy g'oyasi tashiydigan mutlaq haqiqatlarni Ahmad Yassaviy badiiy ijodidagi o'rni chog'ishtirma usulda tahlil etilib, nafs obrazining hikmatnavis shoir she'riyatidagi koordinatasi hamda ahamiyati uning hikmatli "tizma"lari, "nasihat"lari kesimida tadqiq etilgan va nafs obrazi shoir ijodida eng asosiy-markaziy obrazlardan biri darajasiga ko'tarilganligi faktlar vositasida isbotlangan. Nafs obrazi *tuproq, suv, olov va havo* singari obraz hamda *ishq gavhari, shavq sharobi, ruh qushi* kabi tasavvufiy timsollar bilan ham qiyos qilingan. Shuningdek, nafsning boshqa obrazlar (*havo, g'azab, g'aflat va h.k.*) bilan hamohang va rishtavor ekanligi haqidagi qarashlar ham tadqiq va talqin etilgan.

Kalit so'zlar: nafs; havo; o't; tutun; qorong'ulik; bug'; o'zlik; to'rt unsur.

Аннотация. В статье анализируется нафс (вожделение, похоть), представляющий собой уникальный образ в мистической литературе, и его создание, художественное воплощение элементов, на которых он базируется, на основе творчества Ахмада Яссави. Роль и значение образа вожделения в превращении этого образа в неповторимого классического героя, в углублении духовного мира лирических героев, во все

усложняющемся и глобальном замысле, в их общечеловеческой значимости раскрывается через художественное доказательство. Эволюция понятия нафс, его этимология, цивилизация и прошлое развитие было глубоко изучено. Отмечаются особенности образа нафса в религиозном и мистическом контекстах. Прослеживается история превращения понятия нафс из мистической идеи в художественный образ, анализируется художественная идея нафса, его место в классической литературе, наблюдается динамика его развития в образцово-показательной мистической литературе. Сравнительно анализируется место абсолютных истин, которые несет идея нафса в творчестве Ахмада Яссави, исследуются координаты и значение образа нафса в поэзии мудрого поэта с точки зрения его мудрой «строки», «увещевания». По совокупности фактов доказываемся, что образ вождения поднялся до уровня одного из самых центральных образов в творчестве поэта. Образ нафса также сравнивают с такими образами, как земля, вода, огонь и воздух, а также с мистическими символами, такими как «жемчужина любви», вино страсти и птица души. Представление о том, что похоть находится в гармонии и связи с другими образами (воздух, гнев, невежество и т.д.), было проанализировано и проинтерпретировано.

Ключевые слова: вождение; воздух; трава; дым; мрак; пар; тождество; четыре стихии.

Abstract. The article analyzes the concept lust (nafs), which is a unique image in mystical literature; its creation, the artistic expression of the elements on which it is based, in particular in the work of Ahmad Yassavi. The role and significance of the image of lust in the transformation of this image into a unique classical hero, in the deepening of the spiritual world of lyrical heroes is revealed through artistic evidence. The evolution of the concept of lust (nafs), its etymology and development have been observed. The peculiarities of the image of the nafs in the religious and mystical contexts are noted. The history of the transformation of the concept of (lust) nafs from a mystical idea into an artistic image is followed, the artistic idea of lust (nafs), its place in classical literature is analyzed; its dynamics of perfection in exemplary mystical literature is observed. The place of the absolute truths carried by the concept of lust in the work of Ahmad Yassavi is analyzed in a comparative aspect. It has been proved by the facts that the image of the lust has risen to the level of one of the most central images in the poet's work. The image of the nafs is also compared to images such as earth, water, fire and air, as well as to mystical symbols such as the "pearl of love", the wine of passion, and the bird of the soul. The notion that lust is in harmony and bond with other images (air, anger, ignorance, etc.) has also been analyzed and interpreted.

Keywords: lust; air; grass; smoke; darkness; vapor; identity; four elements.

Kirish. Sharq tasavvuf adabiyotida keng ko'lamda badiiy talqin qilingan va bu adabiyotning rivojlanishiga muhim asos bo'lib xizmat qilgan "qahramon"lardan biri nafs obrazidir. Inson — o'z yaratilishiga ko'ra, ichki olamiga sirli tarzda yashiringan yaxlit bir butunlik. Shuning uchun ham turkiy tilda odamni "butun" deb atashdi. Ana shu butunning eng nozik, latif, mukammal uzvlaridan biri, shubhasiz, uning tarkibidagi nafsdur. Bizga aniqki, nafs Qur'on tilida shu ism

bilan atalgan va shu nomi bilan barchaga tanilgan bo‘lib, Yaratguvchining bizga darak berishicha, u juda pishiq, so‘m, qurch, mustahkam, to‘la, butun, mukammal, pok va latif holatda yaratilgan ilohiy yaratq ekanligi anglashiladi: **“Va nafs bilan va uning mukammal qilinishi bilan qasam”** (Shams) (1, 631). Inson borlig‘ining eng latif a‘zosi bo‘lmish ana shu nafs o‘z tabiatiga ko‘ra zulmat (ko‘rolmaslik)da, iztirob (harakat)da, ehtiyojmandlikda yaratilgani bois u boshqarilishga, tarbiyalanishga, ehtiyotkorlikka, yeb-ichishga, harakatlarida ojiz va ko‘r hamda yetakka muhtoj holda insho qilingani bilan diqqatga sazovor obraz hisoblanadi. Shu bois ham nafs o‘rganilishi, o‘rgatilishi zarur eng muhim obrazlardan biri ekanligi ila har qaysi zamon va makonda o‘ziga alohida e‘tibor bilan qarashga kishilarni majbur etib kelgan. Qolaversa, **“Darhaqiqat, o‘zini (nafsini) tanigan, Rabbisini taniydi”** ma‘nosidagi mashhur hadis tafakkurning keng maydoniga chiqqach, mutasavvufklar bu obrazning “ong osti” jihatlariga, uning xarakteridagi “injiq” — intim xususiyatlariga ham e‘tibor qarata boshlashdi. Zero, Ibrohim Haqqulov aytganidek: *“Insonni o‘ziga tanitish, o‘zlik dunyosini obrazli shakllarda suvratlantirish badiiy ijodning birinchi vazifalaridandir (6, 24)”*, — tamoyili tasavvuf adabiyotining markaziga qo‘yildi. Shu tufayli ham u (nafs) o‘zini tanishning asosiy konsepsiyasi (yo‘li) ekanligi va bu tuyg‘ular og‘ushida bir pok adabiyot yaratishning vositasi o‘laroq tasavvuf she‘riyatining bosh planiga ko‘tarildi, so‘ng ushbu g‘oyadan badiiy adabiyotda o‘ziga xos obrazga aylandi, o‘zining poetik takomili yo‘lida keng rivoj topdi. Nafs haqida yozilmagan biror adabiyot topilmasa kerak, zero, asrlar mobaynida insonlar o‘zlarining bosh dushmani bo‘lgan nafs bilan ham jang qilib yashab kelishganiga tarix va adabiyot guvoh. Bu obrazning kishilar bilan munosabati, fe‘l-atvori, xarakter diapazoni shu qadar keng va qiziqki, uni bor bo‘yicha bir-ikki jumlada tasvirlash amri mahol. Shu bois ushbu maqolada uning faqat muayyan jihatigagina, ya‘ni, avvalo, nafsning o‘zi nima (unsurlar)dan va qay tarzda yaratilganiga bir qur nazar tashlamoqchimiz.

Asosiy qism. Nafs so‘zining genezisi bir qadar chigal tuyilishi tabiiy. Negaki bu so‘zning ma‘no ko‘lami nihoyatda keng. Ma‘lumki, nafs so‘zi arabcha bo‘lib, ushbu millat lug‘atlarida u turli ma‘no sathlarida turlicha ishlatiladi. **نفس** (nafs) skletidan harakatlarning turlicha qo‘yilishiga qarab qirqdan ortiq ma‘nolarda ishlatiladi. Shulardan eng mashhurlari: “(fe‘lda) qimmatbaho bo‘lmoq, nimanidir saqlab turmoq, baxil bo‘lmoq, tirishish, jahd qilish, intilish; (otda) shaxs, qalb, ko‘ngil, yurak; qon, bug‘, odam, kishi, xohish-istak, niyat, iroda, shahvat, ishtaha, manmanlik, kibr, g‘urur, iftixor, biror narsaning mohiyati, haqiqat; nafsiy yoki nafsoniy, ya‘ni ruhiy-psixologik holat; seziladigan, sezib bo‘ladigan; egoistiklik, xudbinlik, adovat, xusumat; nufus — aholi, xalq; nafiys — qimmatbaho, nafosat — go‘zallik; nafas, muhlat; kuch-quvvat, iqtidor; havodan nafas olish, raqobat, bellashuv; nafs — jon, ruh” (2, 708) va hokazo kabilardir (tasavvuf adabiyotining asosiy manbasi Qur‘oni karim bo‘lganligi bois ham biz nafsning yaratilishiga doir istilohlar va anosirlarning ismini arab lug‘atiga tayangan holda keltirdik — Z.Ya). Turkiy

tillarda esa nafsni “o‘z” (zot), “qurch”, “mus”, “ilting yoki iltang”, “ko‘kay” yoxud “so‘l”, “so‘m”, “jig‘ildon (ko‘chma ma‘noda)” kabi so‘zlar bilan ifodalaganlar. Ammo bu so‘zlar nafsning ifodalovchisi sifatida ancha kam o‘rganilgan, shuningdek, badiiy adabiyotda ham shu ma‘noda juda oz talqin qilingan ko‘rinadi. Nima bo‘lganda ham, bu so‘zlardan nafsning botiniy va zohiriy ma‘nolariga oid bir qancha mazmun-mohiyatni anglasak-da, bu ifodalar uning bor bo‘yini, ya‘ni ichki xarakterini, botiniy qiyofasini to‘liq namoyon qilish uchun kamlik qiladi. Uning ma‘nolar olamidagi ko‘zga ko‘rinmas, yashirin, ta‘kidlash joizki, asosiy e‘tibor qaratilishi lozim jihatlari ham borki, ularni ilg‘ash va idrok etish oson ish bo‘lmagan, albatta. Holbuki, nafs inson tanasida pinhon, zimdan faoliyat olib boruvchi “foil” bo‘lib, har kim ham unga diqqat qilavermaydi. Uning “sir”li ishlaridagi ma‘nolarini, asli nimadan yaralgani borasidagi tasavvurlarni tasavvuf lug‘atlaridagi ma‘nolardangina anglash, tasavvufiy she‘riyatdagi tasvirlardan sizib turgan sizgilardangina uqish mumkin.

Sharq tasavvuf ta‘limotidan ma‘lumki, insonning badani va nafsi to‘rt unsur dan bino qilingan, degan g‘oya doim ustuvor sanalgan. “Xo‘sh, unda unsur nima?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Avvalo, unsur deb tabiatdagi (moddiyatda) barcha mavjud narsalarni yaratilishiga asos bo‘lgan to‘rt yordamchi — tuproq, suv, olov va havo tushunilgan. Yana-da kengroq e‘tibor qiladigan bo‘lsak, bu borada tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqulov o‘z tadqiqotlaridan birida unsur masalasini Muhyiddin Arabiyning quyidagi fikrlari bilan tushuntirishga harakat qilgan: “Unsur aslida tabiatning suratlaridan bir surat bo‘lib, *“Anosir ustidagi narsa bilan undan tug‘ilgan narsa ham tabiatning suratlariga mansub. Anosir ustidagi borliqlar esa yetti ko‘kdan ham yuksakdagi ilohiy ruhlar hisoblanadi”* (6, 33). Unda nafs va tana bu anosirlardan qanday yaratilganligi ham o‘ziga xos, aytish joizki, insonning bilishi lozim bo‘lgan asosiy ibtidoiy voqeliklardan biridir. Arab tasavvufshunoslarining “Islomiy tasavvuf atamallari” lug‘atiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda nafsning nimadan yaratilganligi borasida bir qator nazariy qarashlar ifoda etilgan. Jumladan, ushbu tuzuklarda: *“Nafs tutunli issiq shamoldan bo‘lgan bir javhardir. Zulumatli (qorong‘uliligi-tutuniligi) bo‘lganligi bois amallar qilishda doim aybu gunohga yo‘l qo‘yadi. Aslida esa u nuroniy (yorug‘lik-nurga oid) ruhdur”* (4, 970), — deya izoh beriladi. Bu ma‘nolarning tadriji davomida Hakim Termiziyning mana bu so‘zlariga yuzlanadigan bo‘lsak, nafsning asli nimadan yaratilganligi ancha oydinlashadi, deyishimiz mumkin: *“Nafs zoti” haqida deydi: “Nafs bu issiq shamol bo‘lib, Buyuk Alloh uni jahannam eshigi yaqinidagi tutundan yaratdi. Uning joyi o‘pka bo‘lib, ba‘zilar u ichaklarda (oshqozonda) bo‘ladi, deb aytgan. Uning harakatini nafs havosi, istagi, amali esa shahvat deb aytiladi. Uning belgisi uning xayfda bo‘lishidir, zero, xayfning bug‘i issiqdir. Boshning bug‘i sovuqdir, chunki u ruhdur. Xayfning bug‘i esa tana va nafsdir”* (8, 21).

Tadqiqot metodologiyasi. Ko‘rinadiki, mutafakkirlar nafsning yaratilishi borasida issiq shamol (o‘t), tutun (havo), bug‘ (suv) va chang (tuproq) kabi so‘zlarga chuqur e‘tibor qaratgan hamda nafsning nimadan yaratilganini shu narsalar (obrazlar) orqali idrok etishga

ahamiyat bergan. Qur’onda zikr etilgan *duxon* so‘zi lug‘atlarda tutun, bug‘ va turli xil tuproq jinsidan hosil bo‘ladigan chang-to‘zon kabi ma’nolarda talqin qilinadi va bir suraning ismi ham shu so‘z bilan atalgan. Ana shu chang yoki tutun eng buyuk unsur bo‘lmish tuproqdan paydo bo‘lgan: **“Ey odamlar! Agar qayta tirilish haqida shubha qiladigan bo‘lsangiz, bas, Biz sizga bayon qilishimiz uchun sizlarni tuproqdan, so‘ngra nutfadan, so‘ngra alaqadan, so‘ngra bitgan-bitmagan bir chaynam go‘shdan yaratdik”** (Haj-5), (11, 298). تراب (turob) so‘zidan tuproq, zamin, chang, to‘zon va tuproqqa xos jinslar ismlari ifoda etilgan. Xalq kitoblaridan bo‘lgan “Nuri Muhammadiy” kitobida ham to‘rt unsur ibtidosi haqida manfaatli fikrlar talaygina. Jumladan, ushbu kitobda to‘rt unsur haqida shunday jummalarga duch kelamiz: *“...Ey mening bandayi xosim, sening do‘st muhabbatindan to‘rt nimarsa yaratdim. — Yo Muhammad, (sollallohu alayhi va sallam) men senga bayon qilay, avval o‘t (olov), keyin havo, keyin suv, keyin tuproq”* (9, 16). Shundan so‘ng asar voqealari davomida Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam) ilohiy amr bilan avval havo, keyin suv, keyin olovning oldiga borib, o‘zining kimligini va murodi ne ekanligini so‘raydi. Uch unsur ham Robbul olamining bandasi ekanligini hamda har na o‘zlarining murodi bo‘lsa, shuni qilishlarini ta’kidlaydi. Ularga esa u kishi banda o‘z maqsadicha ish qilolmasligini aytib, bu ishlarni noto‘g‘ri ekanligini tushuntirish bilan kalima aytirib, iymonga keltiradi. Faqat tuproqdan so‘rganlaridagina u ham Rahmonning bandasi ekanligi va Robbisi nimani amr qilsa, shuni bajarishini aytadi. Shunda u kishi tuproqni quchib: *“Avval-oxir seni iftixor qilurman, na uchunkim, senda kibru takabburlik ko‘rmadim. Hazrati Odamni sendan ofarida qilsa kerak. Va yana senga yuborur”*, — deydi (9, 20). Tuproq tasavvuf adabiyotida eng buyuk unsur hisoblanib, u xokisorlik, betakabburlik, tavoziyu kamtarlik, kamolot timsoliga aylangan. Soliklar mudom uning sifatlari bilan sifatlanishga ijti hod qilishgan. Shoh Ahmad Yassaviy anosirlik g‘oyasini turkiy she’riyatga birinchilardan bo‘lib olib kirgan buyuk hikmatnavis shoirdir. Yassaviyning tuproq haqidagi hikmati ham muayyan ma’noda shu qarashlarning badiiy ifodasidir:

Ishq bobini Mavlom ochqoch manga tegdi,

***Tuproq** sifat hozir bo‘l deb bo‘ynim egdi.*

Boron sifat malomatning o‘qi tegdi,

Paykon olib, yurak bag‘rim teshtim mano.

Mutasavvuf shoirlar o‘z nafsining xohishlariga emas, balki har doim mutlaq Qur’on g‘oyalariga, uning hukmlariga hamohang estetik tafakkur yuritib kelishgani barchaga ayon. Qur’on ma’lumotlariga ko‘ra yerdan olingan tuproqqa o‘ziga xos shakl berish maqsadida San’atkor unga suv qo‘shganini, so‘ng unga muhabbati bilan yuzlanib, uni qudrat qo‘li bilan qorigani hamda unga o‘zigagina xos suvrat ato etganligini idrok etishimiz mumkin: **“Parvardigor shunday Zotdirki, bir qatra suvdan insonni xalq qildi. Bas, ularni ikki qism qilib, bir qismini (nasl jihatdan) nikohini noravo va ikkinchi qismini (quda-andachilik sababidan) ravo qildi”** (Furqon-

54), (3, 492) va **“Batahqiq, Biz insonni eng yaxshi suvratda yaratdik”** (Tiyn-4) (11, 639). ماء (maaun) o‘zagidan arab lug‘atida suv, suyuqlik, sharbat, boshqa so‘zlar bilan birikib yoshlik, bokiralik tarovati, malohati, moviylik, ya‘ni ko‘klik, ko‘zgu kabi ma‘nolar ishtiyoq qilingan. Hazrati Mavlono deydiki: *“Endi shamol va tuproqqa suv qo‘shilgani uchun unda gulu gulzorlar o‘sadi”* (5, 175). Shuning uchun ham suv eng latif unsuridan biri bo‘lib, u soliklar nazdida go‘zallik, lutf, ishq, visol, ko‘zgu, tiniqlik, bokiralik, poklik, nuroniylik, barakot ramzi hisoblangan. Hattoki qalbdagi nurda ham suvdan hosil bo‘ladigan namlikning o‘z o‘rni borligini Hakim Termiziy e‘tirof etib: *“Nafs qachon shahvat tufayli quvvatlansa va qattiqlashsa, u ichda yoyilib, tarqab ketadi va havosi g‘alayonga keladi. Shunda u qalb nurlarini kuydirib yuboradi. Qalb esa o‘z nurlari bilan namli-tirikdir. Chunki nur o‘zi Alloh taolodan bo‘lgan rahmatdir. Rahmat esa sovuq, salqindir. Qalb ham bu nurlar namligiga yetishgan holda yumshoqdir”*, — deydi (7, 111). Qur‘onda suv haqida ko‘plab oyatlar nozil qilingan bo‘lib, ularning barchasida suvning betakror va mo‘jizakor xususiyatlarga egaligi vasf etilgan. Shu jumladan, bu o‘rinda “Anfol” surasidagi tafsilotlar ham teran mazmunga boy: **“O‘shanda xotirjam bo‘lishingiz uchun sizni O‘z tarafidan uyquga cho‘mdirgan va sizni poklash, sizdan shaytonning vasvasasini ketkazish hamda qalblaringizni bir va qadamlaringizni sobit qilish uchun ustingizga osmondan suv tushirgan edi”** (Anfol-11), (11, 146). Tasavvuf she‘riyatida “may”, “vahdat mayi”, “sharob”, “ishq sharobi”, “shavq sharobi”, “ma‘rifat daryosi”, “Xizr suyi”, “obi hayvon”, “zamzam” va boshqa ko‘plab suv bilan bog‘liq timsollar o‘ziga xos obrazlar va metaforalar silsilasini hosil qilgan, albatta. Bu esa suvning insoniyat hayotida nechog‘lik ahamiyat kasb etganligiga dalolatdir. Bugungi kunda, ayniqsa, jahon biolog olimlarning suv ustida olib borayotgan tadqiqotlari tahsinga sazovor bo‘lib, ular suvning ilohiy xususiyatlarini, xususan, inson og‘zidan chiqayotgan so‘zlarni diqqat bilan eshitishi, ularning muomalalariga qarab munosabatga kirishishlarini kashf etdilar. Suvga bo‘lgan muomala estafetasida tasavvufchilarning bashariyatdan ancha ilgari ketganligini ko‘pgina ma‘lumotlarda ko‘rishimiz mumkin. Suv unsurini chuqur o‘rganish, uning tasavvufona talqinlarini tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Yassaviyning bir hikmatiy tasvirida o‘zini shabnamga o‘xshatishida ham aynan suvga urg‘u berilib, unga e‘tibor qaratilishi uqtiriladi, subh suvidagi poklik shoirning nazdida insonning tozarmog‘iga nishonadir. Zero, o‘zini nafs kirkinliklaridan, uning hirsu havaslaridan poklagan odamgina vosil bo‘la oladi. Tubandagi satrlarda oshiq qahramonning visolga yetish yo‘llaridagi holatlari suv-shabnam istioraga asos bo‘lganligi suv haqidagi estetik zavqimizga zavq qo‘shadi:

*Boshim tufroq, yuzum tufroq, jismim tufroq,
Haq vasliga yetarman deb ruhim mushtoq.
Kuydim-yondim, bo‘lolmadim hargiz offoq,
Shabnam bo‘lib yer ostiga kirdim mano.*

Buyuk Badi'u tayyor bo'lgan inson badanini issiqda toblab quritganlik voqeasi unga ma'lum miqdor issiqlik tabiiy ravishda zarurat ekanligini ham anglatadi: **“Insonni sopolga o'xshash qurigan loydan yaratdi”** (Rohman-14), (11, 516). نور (nur) suyagi o'zagidan arab lug'atida: ijobiy ma'nolarda: nurlanmoq, yorishib ketmoq, yorishib bilinmoq (ma'rifat ma'nosida), munavvarlik, olov, o't; salbiy ma'noda: yovuzlik, nafrat, hiyla qilmoq ma'nolari yasaladi. Ma'lumki, chang-to'zonni tuproqdan hosil qiluvchi asos shamoldir. Tutunni esa, albatta, olov vujudga keltiradi. Chunonchi, “Olov bo'lmasa, tutun bo'lmaydi”, deyishadi. Bu yerdagi olovda yonadigan, yonayotgan vaqtda tutun chiqaradigan obyekt inson nafs va tanasidir. Hakim Termiziyning qayd etishicha: *“Havo — u asli olovning nafasidir. Qachonki nafas bo'lgan bu havo bu olovdan chiqsa, o'sha quruqlikdan olov eshigi — do'zaxdan chiquvchi, unda ziynat va farahlardan iborat shahvatlarni olib keladi hamda ularni nafsga yetkazadi. Qachonki nafs bu farah va ziynatga yetishsa, o'zidagi farah va ziynatlar tufayli hayajonga keladi. O'sha issiq yeldir. Shunda u tomirlarga kirib, tomirlar esa undan ko'z ochib yumgandan ham tezroq to'ladi”* (7, 256). Demak, bundan ko'rinadiki, nafsning issiqligi-garmselligi do'zax otashining xilidan ekan. Hadisi sharifda g'azab zikr qilinganda, uning aslini olovga nisbat berib aytildiki: **“Albatta, u (g'azab) o'tdan uchqundir. Kinga u kelsa, tik turgan bo'lsa, o'tirib olsin. Agar o'tirilgan holda ham u to'xtamasa, yotib olsin. Agar yotib olgan holda ham to'xtamasa, tuproqqa yumalasin”**. G'azab nafsning tug'ma yetti fitratidan biri bo'lib, hikmatli Sharq adabiyotida doim uni aqlning o'rnini egallashga harakat qiluvchi “raqib” obraz sifatida tasvirlashgan. Ahmad Yassaviy o'z ijodida nafsni tasvirlar ekan, uni aynan o'tga o'xshatganda, undan zohir bo'ladigan olov (issiqlik)ni asos sifatida olgan va uni shu tashbeh orqali ifodalashga harakat qilgan. Zero, nafsning issiqligiga olov tamal vazifasini bajargan:

Nafsim meni o'tdek yonib yo'ldan urdi,

Yuz ming turlik taom tilab do'kon qurdi.

Og'zin ochib har eshikka meni surdi,

Himmat bersang, it nafsinni ushlasam man.

O'z pozitsiyasiga ko'ra, havo esa nafsning g'uborligiga, g'irashiraligiga, tutunligiga (ko'rligiga) asos vazifasini bajargan. Chunonchi, mutasavvufilar ilmida u, ya'ni havo, nafsning javhari hisoblangan: *“Chunki Odam (alayhissalom) tuproqdan yaratilgan. Havo esa uning turobiy (tuproqli, yerga oid) javharidagi unsur edi. Mana shu turobiylik nafsda tarqalgan holda bo'ldi. Bu onaning sof g'izosidir. Havo — nafsning nafasidir (ya'ni, barcha tuproqdan chiqqan narsalar havodan nafas oladilar). U uning kudurati (xirasi) va javharining aslidir. U zulmatli. U ona g'izosining quvvatidir. Chunki tuproq zulmatlidir. Onang esa seni faqatgina sut va yerdan chiqqan narsalar bilan parvarishlagan”*. Havo obrazi doim nafsga egizak tarzda tasvirlanishi vajhi shu sababdandir. Bu uyg'un faoliyat shu darajada mushtarakki, bu holatni vasf etganda, hatto Alloh taolo o'ziga odamlar sherik keltirib, ya'ni o'zlariga “iloh” qilib olishlari

mumkin bo‘lgan narsa to‘g‘risida xabar berganda ham aynan nafs so‘zini emas, aksincha, havo (asl matnda — Z.Ya.) so‘zini zikr etganligi barcha yolg‘on va riyo, hoyu-havas ishlarning boshida turuvchi “tug‘yon sohibi” aslida nafs emas, balki havo ekanligiga ishoradir: “(Ey Muhammad) (sallallohu alayhi va sallam) **Havosini o‘ziga “iloh” qilib olgan va Oloh uni bilgan holida yo‘ldan ozdirib, quloq va ko‘nglini muhrlab, ko‘z oldiga parda tortib qo‘ygan kimsani ko‘rganmisiz?**” (Josiya-23), (11, 472). Bu oyatdagi ma‘nolarni Imom G‘azzoliy Ibn Abbosning (r.a.) quyidagi tafsirlari bilan izohlashga harakat qilgan: “*Oyatdagi mavzuga bahs bo‘layotgan kimsa Allohdan hech bir hidoyatni va hukmni qabul qilmay, o‘z nafsni havosini din qilib olgan imonsiz kishidir. U havoyi nafsiga juda itoatkor, nimaga da‘vat etsa o‘shanga ergashadi. Bamisli u, shu turishida havoyi nafsiga ibodat qilayotganday ma‘noda*” (1, 340). Shuning uchun ham Hakim Termiziy havoning samarasi haqida gapirib deydi: “*Uning samarasi seni rububiyat-tarbiyakunandalik, boshliqlikni da‘vo qilishga da‘vat qilishidir. Mana shundan Fir‘avn rububiyatni da‘vo qilgan edi. Toki uning shahvat va orzu-havaslarida so‘zi o‘tadigan va ishi amalga oshadigan bo‘lsin. Bu uni “Men sizlarning eng yuksak parvardigoringizdirman”, — dedi*” (Van-nozi‘ot, 24) *deyishga chorladi. Mana shu uning samarasidir*” (7, 159). Tuproq, tutun, suv, havo va o‘t munosabatlarini tahlil qilganda, Jaloliddin Rumiy ularning yashirin uyg‘unligi haqida gapirib, barcha narsaning tarkibida olovning ko‘rinmas mavjudligini, issiqlikning insonlar va barcha narsalar uchun tabiiy zarurat-ehtiyoj ekanligiga va, shu bilan birga, nafsning kirlanishi yoki, aksincha, poklanishiga sababni olovdan emas, balki shamol (havo) va tutundan izlash kerak ekanligiga alohida urg‘u beradi. U kishining nazdida tuproqdan bo‘lgan odam jasadi va nafsni bir o‘tinga o‘xshaydi. Yonayotgan vujud quruq, ya‘ni (pok) bo‘lsa, u tutunning aziyatidan yiroq va sofdir, tozadir. Bil‘aks, u ho‘l, ya‘ni kirkin (shahvatli) bo‘lsa, demakki u nafsning tutunli havoli zulmatiga o‘ralib qolgan va asosiy fahmlanishi lozim ma‘noni anglolmaydi, asl mohiyatni ko‘rolmaydi. Yoki gul o‘stirilgan bog‘ni (nafsni) yomon parvarishlab, unda turli chirkin islar taratadigan o‘simliklarni o‘sishiga yo‘l qo‘yilsa, ayb gulda (olovda-nafsda) emas, balki bog‘bonda (tutun-shamol)dadir. “*Ular tutun olovdan emas, — deydi Mavlono Rumiy, — balki o‘tindan ekanligini bilmadilar. O‘tin qancha quruq bo‘lsa, tutun ham shuncha oz bo‘ladi. Gul bog‘idan yomon hid kelsa, ayb guldami? Yo‘q, aslo! Bu yerda aybdor bog‘bondir*”. Mana shu sabab Hakim Termiziy o‘zining “Aql va havo” va boshqa nafs to‘g‘risidagi qator asarlarida odam tanasidagi ziddiyatlar haqida so‘z yuritarkan, nafsni qalb va ruhga, aqlday javharni esa havoga qarama-qarshi “qahramon” sifatida tasvirlashi, aytish mumkinki, insonning o‘ziga xos ichki botiniy olamini tizimli tarzda obrazli aks ettirishga xizmat qilgan.

Darhaqiqat, tuproq suv, olov va havo uchun misoli yer sayyorasiga o‘xshaydi, ya‘ni u o‘zida to‘rt unurning barchasini, suvni ham, olovni ham va havoni ham jamlab tura olish imkoniyatiga ega unsurdir. Boshqa anosirlarda esa bunday xususiyat yo‘q bo‘lib,

insondek mavjudoti komilning guldek latif badani ana shu tuproqdan yaratildi. Havo soʻziga keladigan boʻlsak, هواء (havoun) suyagidan hosil boʻladigan soʻzlar juda koʻp maʼnolarda istifoda etilib, uning arab lugʻatida koʻproq etibor qaratilgan mashhur maʼnolari esa quyidagilardir: “pastga qarab shoʻngʻimoq, hoyu-havasga berilmoq, maftun qilish, asir qilish, avrash, afsun qilish, sevmiq, qattiq xohlamoq, aqlini oʻgʻirlamoq, chuqurlikka qulamoq, tentak boʻlmoq, aqldan ozgan boʻlish, gʻalati qiliqli, chuqurlik, yiqiluvchi, harakatida shiddatli tus olish, havasmand, havo, shamol, yel, iqlim, serxarxashalik, oʻy-xayol (fantaziya), boʻshliq, boʻm-boʻshlik,” (2, 747) va hokazo maʼnolaridir. Hakim Termiziy nazdida esa: “*Havoning asli shayton izmiga boʻyinsunib va Rahmonga itoatsizlik qilib, nafsning Alloh taolo rozi boʻlmaydigan narsalar uchun harakat qilishidir. Uning ishi shahvatlarga ergashishdir. Havoning ziddi — aql, yaʼni sogʻlom aql*” (8, 68). Nafsning asosiy boshqaruvchisi havo boʻlganligi tufayli ham nafs deganda, **havoni** tushunmogʻimiz lozim boʻladi. Bu hodisa tasavvuf adabiyotida “havoyi nafs”, “badnafs”, “kibru havo”, “havoyilik” va boshqa koʻplab sifatli istioralarni yuzaga kelishiga sabab boʻlgan hamda koʻhna Sharq adabiyoti rivojiga muhim ulush boʻlib qoʻshilgan.

Yaratgan egasining buyruqlariga teskari oʻlaroq havoning bu qadar kuchli ehtiros bilan oʻz orzulariga qarab shoʻngʻishi, shahvatlardan shahvatlarga tiyiqsiz moyil boʻlishi, oʻzining tutunli-zulumatli harakati bilan kishiga (bilib-bilmay) “xoin”lik qilishi tufayli oʻzi va oʻzgalar haqqi chegarasini bemalol buzib, nafsni fisqu fasodga boshlaydi. Uning shu ahvolga tushishini kutib turgan shayton esa unga eng yaxshi sherik boʻlib qoʻltigʻidan oladi. Shundan Yassaviy uni oʻz hikmatlarida *kofir nafs* deb ataydi, havosining “havo” qilganligidan qattiq iztirobga tushadi, undan sodir boʻlishi mumkin gunoh va xavf tufayli undagi kibr va boshqa tuban jihatlarni oʻldirib, yoʻq qilishga jahd qiladi, bu uchun **havosi** hokim boʻlgan tanasini butun olam ahli bosib xor qilishini istaydi, toki u undan qutulsin:

*Shayton lain yoʻldan urdi, holim taboh,
Yigʻlamaymu nafsini mani qildi havo.
Olam bori bosib oʻtsa mani ravo,
Kofir nafsini Azozildan tonarmukin?*

Xulosa. Nafsning tub asosi haqida soʻz borganda, adabiyotshunos olim, professor Ibrohim Haqqulov oʻz izlanishlarida unga asos boʻlgan toʻrt sinch haqida, xususan, shunday deydi: “*Tuproqdan insonga toʻrt sifat: sabr, hayo, tavakkul va makrumot paydo boʻlgan. Suvdan esa toʻrt turli hol: safo, saxo, lutf va visol yuzaga kelgan. Shamol toʻrt havas: yolgʻon, riyo, shoshqinlik va nafsiga asos boʻlgan. Olovdan esa shahvat, kibr, tama va hasad tugʻilgan*” (6, 34). Darhaqiqat, bu xulosalar, obrazlar tagida chuqur hayotiy, tasavvufiy-mushohadaviy maʼno va mazmun mujassam boʻlib, unga tasavvufona tafakkur bilan boqish zarur boʻladi. Keltirilgan asoslarning davomi sifatida shuni aytish kerakki,

bizningcha, unsurlardan yana bir necha nav taalluqotlar yuzaga kelgan. Jumladan, tuproqqa oid: *kamtarlik, sidq, rajo, rizo, ixlos, muhabbat, himmat, sakiynat, tavoze', hilm, marhamat, qanoat*; suvga xoslangan: *shukr, xuzu', xayf, vara', g'urbat, shavq, inobat, shafqat, ishonch, ilhom, farah va ofiyat*; havoga tegishli: *isyon, hirs, vasvasa, yomon niyat, adovat, hayosizlik, zulm, ig'vo, muhabbatsizlik, xatokorlik, takalluf va xiyonat*; olovga taalluqli o'n ikki xususiyat: *g'aflat, g'azab, baxillik, jizzakilik, vahm, tahayyur, laganbardorlik, yaxshilikdan behojatlik, taassublik, g'iybat, isrof qilish, o'ziga bino qo'yish*. Albatta, bu farqlanish **“Bas, unga (nafsga) fujuri va taqvosini bildirdi** (matnda: “ilhom qildi” — Z.Ya.) (Shams-7-10) (11, 631)” oyatidagi nafsni ikkiga bo'lib, ya'ni avval unga fujuri (buzg'unchilik, fisqu fasod)ni va yana unga taqvosi (saqlanish, tiyilish)ni ilhom qilganligi to'g'risidagi sifatlash asosida yuzaga chiqqanligida ko'rinadi. Negaki, nafsning o'zida ana shu ichki ziddiyat mavjud bo'lib, ba'zi nafslar yuqoridagi ezgu sifatlarga o'ralsa, ba'zilari esa yuqoridagi yovuzlik illatiga muhtalo bo'ladi. *“Har odam to'rt anosirdan xoliy ermas. Ba'zining ta'bi o't va ba'zining ta'bi shamol va ba'ziniki suv va ba'ziniki tufroq”*(9, 20). Yuqoridagi fikrlardan xulosa qiladigan bo'lsak, moddalar olamida nafsning mavjudligini to'rt unurning, ya'ni tuproq, suv, olov va havoning o'ta daqiq holatdagi o'zaro uyg'un qorishmasidan hosil bo'lgan latif bir javhar deb tushunishimiz mumkin. Jinsiyu jismi tuproqdan, quvvati o'tdan, nafasi va harakati havodan, farahi va rivoji esa suvdan. Ma'lumki g'arb tadqiqotchiligidagi nafsshunoslikni psixologiya (ruhshunoslik) deb atash odat tusini olgan. Bizning taklifimiz shuki, ilmiy kashfiyotlar va ixtirolar asri hisoblangan ushbu davrda nafsshunoslik ilmlari ruhshunoslik deb emas, balki nafsshunoslik deb atalsa hamda yangi nafsshunoslik fani ham joriy etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafatul qulub. — Toshkent: Munir, 2021. — 471 b.
2. An-na'ym-ul-kabir. Arabcha-o'zbekcha izohli lug'at. Namangan davlat universiteti. — Namangan: Namangan, 2014. — 805 b.
3. Bayonul furqoni fi tarjimatil qur'on. Qur'oni karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimasi. Tarjima va izohlar muallifi: Shayx Muhammadjon mullo Rustam o'g'li (Mavlaviy hoji Hindistoniy). Hozirgi tilimizga tabdil qilib nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va qavs ichidagi izohlar muallifi: Sayfiddin Sayfulloh. — Toshkent: Munir nashriyoti, 2022. — 829 b.
4. Doktor Rafiq A'jam. Mavsuat mustolihatut tasavvuful islamiy (Kengaytirilgan islomiy tasavvuf ensiklopediyasi). — Bayrut-Libnan. Libnan, 1999. — 1279 b.
5. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadur. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. — 238 b.
6. Ibrohim Haqqulov. Navoiyga qaytish. — Toshkent: Tafakkur, 2021. — 239 b.

7. Muhammad Hakim Termiziy risolalari. Tarjimon: J.Cho'tmatov. — Toshkent: Movorounnahr, 2017. — 439 b.
8. Muhammad Hakim Termiziy. Ma'rifatul asror. Arab tilidan Abdulhamid Muhammad Tursunov tarjimasi. — Toshkent: Movarounnahr, 2017. — 94 b.
9. Nurnoma. Nashrga tayyorlovchilar: Asror Samad, Erkin Yusupov. — Toshkent: Fan, 2003. — 47 b.
10. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. — Toshkent: Navro'z, 2018. — 351 b.
11. Qur'oni karim. Alovuddin Mansur tarjimasi. — Toshkent: Cho'lpon, 1991. — 670 b.
12. Hakim Termiziy. Mo'minlarning ibodatdagi darajalari (Manozilul ibod minal iboda). — Toshkent: Movorounnahr, 2018. — 59 b.
13. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/ibrohim-haqqul-ruhoniyyat-va-nafsoniyyat-tazodi/>

References

1. Abu Homid G'azzoliy. *Mukoshafatul qulub* (Mukashafatul gulub), Tashkent: Munir, 2021, 471 p.
2. An-na'ym-ul-kabir. *Arabcha-o'zbekcha izohli lug'at. Namangan davlat universiteti* (Arabic-Uzbek Explanatory Dictionary. Namangan State University), Namangan: Namangan, 2014, 805 p.
3. Bayonul furqoni fi tarjimatil qur'on. *Qur'oni karim oyatlari ma'nolarining izohli tarjimasi* (Explanatory translation of the meanings of the verses of the Quran.), Tashkent: Munir nashriyoti, 2022, 829 p.
4. Doktor Rafiq A'jam. *Mavsuat mustolihatut tasavvuful islamiy* (Expanded Encyclopedia of Islamic mysticism), Bayrut-Libnan. Libnan, 1999, 1279 p.
5. Jaloliddin Rumi. *Ichindagi ichindadur* (Inside it is inside), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2016, 238 p.
6. Ibrohim Haqqulov. *Navoiyga qaytish* (Return to Navoi), Tashkent: Tafakkur, 2021, 239 p.
7. *Muhammad Hakim Termiziy risolalari* (Muhammad Hakim Termiziy treatises), Translator: J.Cho'tmatov, Tashkent: Movarounnahr, 2017, 439 p.
8. Muhammad Hakim Termiziy. *Ma'rifatul asror*. Translation of Abdulhamid Muhammad Tursunov from Arabic, Tashkent: Movarounnahr, 2017, 94 p.
9. *Nurnoma*. Print makers: Asror Samad, Erkin Yusupov, Tashkent: Fan, 2003, 47 p.
10. Xoja Ahmad Yassaviy. *Devoni hikmat*, Tashkent: Navro'z, 2018, 351 p.
11. *Qur'oni karim* (Quranic karim), Alovuddin Mansur translation, Tashkent: Cho'lpon, 1991, 670 p.
12. Hakim Termiziy. *Mo'minlarning ibodatdagi darajalari* (Levels of believers in prayer), Tashkent: Movarounnahr, 2018, 59 p.
13. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/ibrohim-haqqul-ruhoniyyat-va-nafsoniyyat-tazodi/>